

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY VA IQTISODIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN O'ZGARISHLAR MAZMUN VA MOHIYATI.

TDIU assistenti
Axmatov Shahzod Boymirza o‘g‘li
+998971081661
TDIU 1-kurs talabasi
To ‘raxonov Alisher
+998902257885

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'ngi yillarda O'zbekiston jamiyatida bo'layotgan o'zgarishlar haqida so'z boradi. Jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlar, jamiyatni yuksaltirishga qaratilgan ishlar va bu ishlarni turli raqamlarda aks etishi jarayonini ko'rishimiz mumkin. Jumladan davlat negizida shahar negizida va mahalla negizida bo'layotgan o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Bozor iqtisodiyoti, ma'naviyat, "O'zbekiston – 2030", qishloq xo'jaligi, Obod mahalla,kuchli ijtimoiy siyosat.

Аннотация: В статье рассматриваются изменения, происходящие в узбекском обществе за последние годы. Мы видим, как проводятся реформы в общественной жизни, как ведется работа по улучшению общества и как эти усилия отражаются в различных цифрах. В частности, обсуждаются изменения, происходящие на уровне штата, города и района.

Ключевые слова: Рыночная экономика, духовность, «Узбекистан - 2030», сельское хозяйство, Процветающее соседство, сильная социальная политика.

Abstract: This article discusses the changes taking place in Uzbek society in recent years. We can see the reforms being carried out in public life, the work aimed at improving society, and the process of reflecting these works in various figures. In particular, it discusses the changes taking place on a state, city, and neighborhood basis.

Keywords: Bazar economy, spirituality, "Uzbekistan - 2030", agriculture, Prosperous neighborhood, strong social policy.

Kirish: Har qanday jamiyat taraqqiyoti bevosita uning ijtimoiy sohadagi yutuqlari va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir davrda ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning o'z tiklanish va taraqqiy etish yo'liga asoslangan tamoyillardan biri ham bu kuchli ijtimoiy siyosatdir.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda "O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar shaxs sifatida shakllanishi, o'z qobiliyatini namoyon etishi,

hayotini yanada munosib, ma'naviy boyroq qilishi" zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha kafolat va choralarning ta'minlanishi tushuniladi. Davlat tomonidan aholining turmush darajasini oshirish, ta'lism, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdi. Mustaqillik yillari mobaynida mavjud real iqtisodiy va demografik vaziyatni inobatga olgan holda bozor iqtisodiyoti sari bosqichma bosqich o'tish asnosida aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi yaratildi. Dastlabki bosqichlarida bu barcha aholini Ijtimoiy himoyalanishini ta'minlovchi yo'li bo'lib, u o'z o'mnida insonlar hayot kechirish darajasining keskin ravishda tushib ketishini oldini olish, mamlakatda turg'unlikni saqlab qolish imkoniyatini berdi. Islohotlarning chuqurlashib borishi barobarida aholiga manzilli yordam ko'rsatilishiga katta e'tibor qaratildi. Jumladan nafaqa va yordam pullari oilalarga berila boshlandi, bunda asosiy e'tibor kam ta'minlangan oilalar, qariyalar ya bolalarga qaratildi. Aholining turli qatlamlariga differensial yondoshish zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tomonlaridan biridir. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi barqaror iqtisodiy o'sish, aholi hayoti tarzining sifat jihatidan yaxshilanilishiga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lidan ishonch bilan bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanishda davom etmoqda. Shunday qilib, 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 6.5 foizni yani 115 milliard dollarga yetdi, xorijiy investitsiya 1.6 barobar o'sib, 34,9 milliard dollarni tashkil qildi, qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyihamalar ishga tushdi, eksport esa ilk bor 27 milliard dollarga chiqdi. O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli uchdan bir qismi sanoatga to'g'ri keladi. Yiliga 60 milliard kub metrdan ortiq tabiiy gaz, 750 ming tonna neft, 2 million tonna gaz kondensati, 4 million tonna ko'mir qazib olinadi. Rangli metallurgiya (mis, rux, molibden, volfram, platina guruhi metallari) va qimmatbaho metallar (oltin, kumush) uchun rivojlangan xomashyo bazasiga ega, bu esa xom ashyo yetkazib berish bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Mahalliy xomashyo asosida kimyo sanoatida har xil turdag'i azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar, sintetik tola va iplar, soda, kauchuk mahsulotlari, polimer mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. To'qimachilik sanoati jadal rivojlanmoqda. 2025-yilda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini to'qimachilik klasterlarini tashkil etish orqali to'liq qayta ishlash vazifasi qo'yildi. Boy mahalliy xomashyonini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan tarmoq maqsadli dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Sug'orma dehqonchilik mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining asosidir. O'zbekiston meva-sabzavot, meva va uzum, pilla, qorako'l mo'yna va jun yetishtirish bo'yicha Jahonda yetakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda qishloq

xo'jaligida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda: paxta va g'alla yetishtirishning eskirgan kvazidavlat tizimi o'mniga xususiy sektorga tegishli va bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi zamonaviy agrosanoat klasterlari faol joriy etilmoqda.

Hozirda ular mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxtaning yarmidan ko'pi (52 foizi) yetishtirmoqda. Qishloq xo'jaligini diversifikasiya va modernizatsiya qilish ishlari yani "Obod Mahalla" kabi loyihalar olib borilmoqda, jahon bozorida xaridorgir bo'lgan yangi meva-sabzavot turlari Joriy etilmoqda. Dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilinmoqda bu mamlakat eksportining 20 foizini tashkil etadi. Moliya, arxitektura, aloqa, axborotlashtirish va sog'liqni saqlash sohalarida xizmat ko'rsatish sohasida yuqori o'sish sur'atlariga erishilmoqda. O'zbekiston dunyoning barcha davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik uchun ochiq. Xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun eng qulay davlat rejimini yaratish nazarda tutilmoqda. Islohotlar strategiyasining ustuvor yo'naliishlari ijtimoiy siyosat, aholi uchun munosib turmush sharoitini ta'minlash masalalari bo'lib qolmoqda. Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar sezilarli darajada oshirilib, 2024-yilda aholining real daromadlari 16.1 foizga oshdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, islohotlar jarayonida nafaqat qonun hujjatlarini o'zgartirish, balki strategiyalarni ishlab chiqish eng murakkab vazifadir. Asosiysi, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish. O'zbekistonda 2024-yilda 5 million aholini doimiy va mavsumiy ish bilan taminlash bo'yicha bir qator qununlar qabul qilindi. Shaharlarda energiya tejamkor arzon ko'p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi tasdiqlandi va amalga oshirilmoqda.

Asosiy ustuvor vazifa makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash. Bunda, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish muhim qadam bo'lib, u iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun uzoq muddatli maqsad va vazifalarni, rivojlanishning ustuvor yo'naliishlari va ularga erishish usullarini shakllantiradi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar vektori 2023-yil 11 sentabrda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan "O'zbekiston 2030" strategiyasi iqtisodiyotni erkinlashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirishning eng muhim Jihatlarini qamrab olgan holda belgilab berildi. Bu mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, biznes yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Yana bir muhim shart moliya bozorlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'lib, buning uchun moliya sektorini yanada rivojlantirish konsepsiyasini hamda moliya bozori infratuzilmasini modernizatsiya va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutmoqdamiz. Uchinchi ustuvor yo'naliish aholini ijtimoiy himoya qilish va ularga xizmat ko'rsatishni kuchaytirish. Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bilan pensiya islohotini o'tkazish nazarda tutilmoqda. Ijtimoiy kafolatlar tizimi

ham qayta ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy sohani isloq qilishning muhim yo'naliшlaridan biri mehnat bozorini isloq qilish bo'ladi: davlat sektorida ish haqi fondini shakllantirish, vaqtinchalik ishsizlikdan sug'urta olish imkoniyatini soddalashtirish, kasb-hunar ta'limi dasturlarini diversifikatsiya qilish choralari ko'rilmoxda. Xususiy sektorning kengroq ishtirokini, tibbiy xizmatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishni ko'paytirishni, aholiga kafolatlangan tibbiy xizmatlarning to'liq va sifatli ko'rsatilishini monitoring qilish va monitoring qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va Joriy etishni nazarda tutuvchi Sog'liqni saqlashni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, shuningdek, davlat ulushidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Yana bir ustuvor yo'naliш tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'lib, bunda suv zahiralarini boshqarish va sug'orish sohasiga muhim o'rinn berilgan. Qishloq xo'jaligini tomchilatib sug'orish, gidropnika va boshqa ilg'or qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan foydalangan holda intensiv rivojlantirishga o'tishni nazarda tutuvchi konsepsiya ham ishlab chiqildi.

Xulosa Bu islohotlarning barchasi mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashtirish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. O'zbekistonning jahon hamjamiyati uchun ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash choralari ko'rilmoxda. Rivojlanishning ikkinchi muhim ustuvor yo'naliши raqobatbardosh bozor zor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirish bo'lib, bunda yerdan foydalanish va foydalanuvchilarining huquqlari sohasida islohotlarni amalga oshirish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda kundan kunga ijtimoiy sohada yangidan yangi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prizidentimiz aholi hayotini yaxshilashga va davlatimiz rivojlanishiga harakat qilmoqda. Biz bu harakatni qo'llab quvvatlashga va qadriga etishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2023.
2. Abdurahmonov Q.X, Shoyusupova N.T, Bakieva I.A, Abdurahmonova G.Q.
3. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillar asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish. Monografiya. - T.:IQTISODIYOT, 2017.
4. Davlatning makroiqtisodiy siyosati (o'quv qo'llanma). –T.: Akademiya, 2007
5. Lex.uz
5. Gazeta.uz